



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI  
STATISTIKA AGENTLIGI**

2023- yil "23" may

BUYRUQ № 22

Toshkent sh.

O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi 539-son "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritishning amaldagi qo'llanmasini takomillashtirish maqsadida,

**BUYURAMAN:**

1. Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish bo'yicha qo'llanma ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2014-yil 27-oktabrdagi 11-son "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish bo'yicha qo'llanmani tasdiqlash haqida"gi va 2016-yil 30-dekabrdagi 19-son "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish bo'yicha qo'llanmaga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qarorlari bekor qilinsin.

3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**Direktor**

**B. Begalov**